

TIRIKLAR MUDROQDA, O'LIKHLAR UYG'OQ...

Рушана Зарипова

Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва
адабиёти университети таянч докторанти.

E-pochta: rushanazaripova73@gmail.com

ORCID ID: 0009-0002-8207-2819

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14277449>

Annotatsiya. Ijodkor kishi hamisha zamonasining, zamondoshlarining dardi bilan yashaydi. Kishilardag qusur va kamchiliklarni badiiy ifodalar bilan, ta'sirchan va ibratli tarzda ko'rsatib beradi. Jamila Ergasheva ham katta-kichik hikoyalari davr manzarasi, kishilar ma'nnaviy dunyosini olib berishga harakat qilgan. Mazkur maqolada ijodkorning "O'lim" hikoyasi tahlil etilib, undagi muallif aytmoqchi bo'lgan va ayta olgan fikrlar, izardroblar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: образ, характер, портрет, ограниченность, бадиевский психологизм.

THE LIVING ARE WISE, THE DEAD ARE AWAKE...

Abstract. A creative person always lives with the concerns of their time and contemporaries. They artistically express human flaws and shortcomings in an impressive and instructive manner. Jamila Ergasheva, in her various short stories, also tried to reveal the spiritual world of people, depicting the era's scenery. In this article, the analysis of the author's story "Death" is discussed, including the thoughts and sufferings the author intended and managed to convey.

Keywords: image, character, portrait, limitation, artistic psychologism.

ЖИВЫЕ ПРОСЫПАЮТСЯ, МЕРТВЫЕ ПРОСЫПАЮТСЯ...

Аннотация. Творческий человек всегда живет болью своего времени и современников. С помощью художественных средств он показывает человеческие недостатки и изъяны выразительно и поучительно. Джамила Эргашева также старалась в своих маленьких и больших рассказах раскрыть духовный мир людей, изображая картины эпохи. В данной статье анализируется рассказ "Смерть" автора, обсуждаются идеи и страдания, которые она хотела и сумела передать.

Ключевые слова: образ, характер, портрет, ограниченность, художественный психологизм.

Istiqlol davri milliy nasrimiz taraqqiyotining muhim tamoyillaridan biri mafkura tazyiqidan qutulgan ijodiy jarayonda yuzaga kelgan erkinlashtirish natijasida mavzular doirasining kengayganligi va xalqimiz turmush tarzini, ularning turfa xil ruhiy-psixologik kechinmalarini adabiyotimizdagi mavjud milliy an'analar va jahon adabiyotidagi ilg'or tajribalardan ta'sirlanib, o'ziga xos turli tasvir usullarida aks ettirayotganligidadir"¹

Hikoyanavislikdagi yangilanish va o'zgarishlar jarayonini o'rganish, ularning saviyasini belgilash, kitobxonlarni yaratilayotgan badiiy, yuksak saviyaga ega mukammal asarlardan xabardor qilish bugungi adabiyotshunoslikning dolzarb vazifasidir. Ana shunday hikoyalarni Jamila Ergasheva ijodida ham mavjud bo'lib, ularni bugungi fan-texnika shiddat bilan

¹ Тўраев Дамин. Янги ўзбек адабиёти. – Тошкент. Фан, 2008. – Б. 178

rivojlanayotgan davrda ham adabiyot maydonida mavjud ekanligini bildirish, asarning zamon bilan bog'liq jihatlarini o'rghanish, obrazlar olami bilan tanishish va badiiyatini o'rghanish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamila Ergashevaning "O'lim" hikoyasida ayni jihatlarni yaqqol ko'rishimiz mumkin. Ushbu hikoyada dastlab yozuvchi maqssadini anglash qiyin kechadi. Hatto asar qahramonlarining ismi ham oshkor etilmaydi. Buni, albatta, ijodkorning o'ziga xos uslubi deyish mumkin.

Asarda uzoq yillar (butun umr deyish ham mumkin) "davlat ishida ishlagan" inson hayoti tasvirlanadi. Garchi "davlat ishi" deyilsa-da, aynan qanday ish ekanligi aytilmaydi. Muhimi bu emas. Balki ijodkor o'quvchisini chalg'imasi uchun asosiy maqsad sari shu yo'sinda yetaklab borar...

Asar davomida adib qismat, o'lim haq ekanligi, inson taqdiriga yozilganidan ayro tushmasligi, ajal kelganida barcha ishni tashlab boqiy dunyoga ketishni hayotiy misollarda, samimiy ranglarda tasvirlab beradi.

Ushbu mo'jazgina hikoyada inson qadr-qimmati, jamiyatdagi o'zaro munosabatlari, makon-va zamon ziddiyatlari hamda o'tkan asrdagi mafkuraviy tazyiqlar "yashirin pardalarda" aks ettiriladi. Hikoya quyidagicha boshlanadi:

Uning o'lganligi haqidagi xabarni eshitib, unga qancha achingan bo'lsam, o'zimdan shuncha xavotirlandim:

«Ha, o'lim barhaq! Hali nihoyasiga yetmagan qancha ishlarim bor!»²

Hamkasbining o'limiga achingan muallif, o'zidan chuqur xavotirga tushadi. Nega-ki, hamkasbining o'limi uni ham hayotning asl mohiyati haqida o'ylashga majbur etyapti. Uning ham qanchadan-qancha qiladigan ishlari yotibdi. Lekin, o'lim kutib turmaydi. Sen yosh, sen keksa deb qarab turmaydi. U so'rab ham o'tirmaydi. «Biz keldik, kiraversak maylimi, u yoq-bu yog'ingni tartibga solib olganmisan, yo'qmi?» deb.

Butun umr ter to'kib, mehnat qilsa-da, umri ijara uyda yashash bilan o'tib ketdi. U davlat ishida ishlasa-da, shaxsiy uy-joy qilishga imkoniyetmaganidek, mashina olishning ham iloji yo'q! Ammo, unda umid bor edi. Uzoq yillik mehnati evaziga ishxonadagi chiqitga chiqib, necha yillardan beri ishlamay, to'kilib yotgan mashinalardan birontasini arzon-garovga berar, deb boshliqning oldiga kirdi. Yangi mashina so'rasa ham bo'lardi-ku. Lekin, bu yerda ijtimoiy tengsizlik nafasi "ufurib turgandek". Aslida ham shunday. Boshliqning miyig'ida kulib, «Sizga bermasak, kimga beramiz. Faqat shoshmay turing», deyishi unga jamiyatdagi eng past insonga (aslida "past-baland" so'zlarini insoniyatga nisbatan ishlatish to'g'ri bo'larmikan?) qaragandek, go'yo hech kimdek munosabatni bildiradi. Hatto, dildan suhbat qurish uchun hamkasbi, ya'ni muallifning yoniga kirganida ham unga yetarlicha e'tibor berilmadi. Ana shunda, tirikligida hech kim qayrilib ham qaramaydigan, hatto odamlar orasida tirikligi ham sezilmagan bir insonning vafot etganidan so'ng, mayitini so'nggi manzilga kuzatishdan oldin kostyum-shimda, sochlari kuzab, azaga keluvchi "kattakonlar" oldida "uyaltiramslik" uchun qilingan xatti-harakatlar kulgini qistaydi. Yo'q, aslida shu o'rinda kulish emas, ho'ngrab yig'lagan afzalroq. Nega? Chunki mafkuraviy tazyiqlar hatto shu o'rinda ham suqilib kirgani g'ashingizni keltiradi.

² Ўзбек насли онлайн антологияси //Жамила Эргашева// Ўлим (хикоя) //Ziyouz.uz_ 18.04.2012

Mutolaa jarayonida e'tibor bersangiz, mayyitni rasmiy libosda kiyintirib qo'yish to Bahriniso kelguniga qadar hech kimning xayolida yo'q edi. U yaqin insonining azasida ham "kattakonlar"ning chizgan chizig'idan chiqmaslikka urindi. Bir qarashdan u ham shunga majburdek tuyuladi. Lekin, muallif bunga biror bir ishora qilmaydi. Hikoyani o'qish davomida mana bu satrlar o'quvchini biroz sergaklantiradi:

"...Anchadan so 'ng eshik ochilib, erkaklarning birovi Bahrinisoni imlab chaqirdi. Uning rangi qumdek oqarib ketgan edi. G'ivir-shivir qilib o'tirgan bir uy xotin bitta quloqqa aylanib, erkakning og'ziga tikilishdi..."³

Dastlab o'quvchining xayolidan mурданинг бутун умр одамлардан яшириб келган бирор нуқсони бормикан? Ўзи кичкарда кутилмаганда г'айриtabiiy бирор воqeа sodir bo'ldimikan? Balki... бу каби о'y-xayollar har bir kitobxonda bo'lishi tabiiy. Ammo, асар давомида bunday sarosimaning sababi aytilgan... yana o'sha holat: kulishni ham yig'lashni ham bilmaysiz.

E'tibor berilsa, murdani qanday ko'yga solishning ahamiyati yo'q. Muhimi "kottakonlar"ga ma'qul bo'lsa bo'ldi. Shu o'rinda o'ylab qolasan kishi: o'lik kim? Xuddi uxlagandek, dunyo tashvishlarining barisiga qo'l siltab omonatini topshirgan, uy o'rtasida uzatib qo'yilganmi yoki uning atrofida rasmiyatichilik uchun har maqomga yo'rg'alaydigan, "kottakon" larga yoqish uchun o'zini va yaqinlarini har ko'yga soladiganlarmi. Balki ushbu davrdagi butun bir jamiyat tirik murdadir?

Jamiyatda ildiz otgan bu singari illatlarni o'ziga xos humor bilan olib bergan ijodkor Jamila Ergashevaning uslubiy mahoratini, uning yana bir qirrasini ushbu mo'jazgina hikoyada ko'rish mumkin.

REFERENCES

1. Adabiyot nazariyasi. 2 jiddlik. Adabiy asar. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1978.
2. Adabiyot nazariyasi. 2 jiddlik. Adabiy-tarixiy jarayon. 2-jild.– Toshkent: Fan, 1979.
3. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000.
4. Normatov U. Qahhorni anglash mashaqqati. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti, 2000.
5. Жамила Эргашева// Ўлим (ҳикоя). Ziyouz.uz. Ўзбек насли онлайн антологияси.
6. Эргашева Ж. "Шом шафаги жилвалари". Т.: . "Faafur Fulom". 2016-й

³ Ўзбек насли онлайн антологияси //Жамила Эргашева// Ўлим (ҳикоя) //Ziyouz.uz 18.04.2012